

11-SON SHARTNOMA

(avtomobilga texnik-servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risida)

Toshkent sh

" 17 " dekabr 2022-yil.

Bundan buyon "Buyurtmachi" deb ataluvchi Hi-moi kom. pul. kor. byuroligi nomidan NUQSON asosida faoliyat olib boruvchi Boqich yuborilgan H. Puqichov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb nomlanuvchi ""Mexanik Avto Parts"" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi uning direktori A.S. Achkasov boshqa tomondan, birgalikda "Tomonlar", har biri alohida "Tomon" deb nomlanuvchilar, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar: Ushbu o'zaro Shartnomani, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 3-bobi va 37 - 38-boblarining 354 - 363-moddalari (shartnoma tushunchasi va shartlari) va 45-bobi 790-816-moddalari (naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblar)ga, 02.05.2012-y. № O'RQ-328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, 29.08.1998-y. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va "Avtomobil transporti to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-son "Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida"gi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. "Bajaruvchi", "Buyurtmachining" topshirig'i bo'yicha, tomonlarning kelishuviga binoan, xizmatlarni (transport vositasi, avtomashinalarda reglament ishlarini o'tkazish, TXK va ta'mirlash) ko'rsatish majburiyatini oladi va "Buyurtmachi" ushbu shartnomada belgilangan muddatda ularni qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

1.3. Xizmatlarning nomi va ro'yxati, ularning miqdori va narxi Tomonlar tarafidan kelishiladi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Nuqsonlar dalolatnomada (1-ilova) va texnik xizmat ko'rsatish uchun hisob-kitobda (2-ilova) ko'rsatiladi.

Avtomashinaga texnik xizmat ko'rsatish va uni joriy ta'mirlash:	Tovarlar va xizmatlar nomi	o'lchov birligi	Summa (so'm) 15% QQS bilan
	Джентра гос. № 01 228 ДАВ		
	Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun jami summa 15% QQS bilan		12 897 500,00

2. TO'LOV MUDDATLARI VA SHARTLARI

2.1. "Bajaruvchi" texnik xizmat ko'rsatishni va ta'mirlashni faqat № 20208000200893131001 hisob raqamiga mablag' tushganidan keyin amalga oshiradi.

Shartnomaning umumiy qiymati 12 897 500,0 so'mni tashkil etadi, shundan budget mablag'laridan 6000 000 so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan 6 897 500 so'm.

2.2. To'lov summasining oldindan to'lovi shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 10-bank kuni mobaynida shartnoma summasining 30% miqdorida o'tkazilishi lozim.

2.3. Hujjatlar aylanmasi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

2.4. Shartnomaning qolgan 70% summasi "Buyurtmachi" tomonidan Yuk xatlari, Hisob-fakturalarni olingan paytdan boshlab hisob raqamiga o'tkazilishi lozim.

2.5. Agar ishlarni bajarish yoki tekshirish jarayonida qo'shimcha nuqsonlar aniqlanib, ularni bartaraf qilish Birlamchi nuqsonlar dalolatnomasida ko'zda tutilmagan bo'lsa, ularni bartaraf etish ushbu Shartnoma Tomonlarining vakolatli vakillari tomonidan imzolanishi kerak bo'lgan Nuqsonlar dalolatnomasiga qo'shimchalar / o'zgartishlar kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunday holda, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni bajarish muddati qo'shimcha ishlarning tegishli vaqtiga uzaytirilishi mumkin.

2.6. "Bajaruvchi" shartnomaga muvofiq oldindan to'lov o'tkazilgan va materiallar hamda transport vositalari taqdim etilgan paytdan boshlab 30 kun ichida texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.7. Hujjatlar rasmiylashtirilgan, materiallar va transport vositasi qabul qilingan paytdan boshlab but saqlash huquqi "Bajaruvchi"ga o'tadi.

2.8. Ushbu shartnoma shartlariga binoan, xizmatlar bahosi va xarajatlar hisob-kitobi ishlar va ehtiyot qismlar bahosidan hisoblanadi, va 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilganlarni ko'zdan kechirish to'g'risidagi Nuqsonlar dalolatnomasini tuzish vaqtida Tomonlar tarafidan kelishib olinadi, va umumiy summani tashkil qiladi:

O'n ikki millon sakkiz yoz to'son etti ming besh yoz so'm QQSni hisobga olgan xolda.

2.9. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni olish vaqtida narxlar o'zgargan taqdirda "Bajaruvchi" ushbu shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlarning narxini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda "Buyurtmachiga" yozma ravishda xabar beradi. "Buyurtmachi" rozi bo'lmagan taqdirda, u oldindan to'langan pul mablag'ini va transport vositasini taqdim etilgan holatda qaytarib olish bilan ushbu Shartnomani rad etish huquqiga ega.

3. XIZMAT KO'RSATISHNING MUDDATLARI VA TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar "Bajaruvchi" tomonidan Tomonlar o'rtasida tuzilgan va kelishilgan ko'zdan kechirish to'g'risidagi Nuqsonlar dalolatnomasi asosida ko'rsatiladi. Xizmat ko'rsatish uchun avtotransport vositalarini taqdim etish sanasi va vaqtini Tomonlar telefon orqali og'zaki kelishib oladilar.

3.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar Avayxon ko'chasi 98A-uy manzilida joylashgan Texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasida ko'rsatiladi.

3.3. "Buyurtmachi" "Bajaruvchiga" transport vositasini va pul mablag'lari tushganligi to'g'risidagi ma'lumotni Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 10-kun ichida taqdim etishi kerak.

3.4. Ishlar, ishlatilgan ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar, agregatlar, sarflanadigan materiallar hajmi va bahosi xizmatlarning turiga, hajmiga va murakkabligiga qarab belgilanadi va ko'zdan kechirish to'g'risidagi Nuqsonlar dalolatnomasini tuzishda ko'rsatiladi va kelishiladi. Tomonlar ko'zdan kechirish to'g'risidagi Nuqsonlar dalolatnomasini imzolaydilar va u ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish muddati ishlarning hajmi va murakkabligiga bog'liq va har bir holat bo'yicha Tomonlar kelishib oladi.

3.5. Avtomashinani texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun topshirish "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" ishtirokida amalga oshiriladi.

3.6. Tomonlarning yuridik va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, Tomonlar 5 (besh) kalendar kun ichida boshqa Tomonni xabardor qilishlari shart. Aks holda, Tomonning avvalgi rekvizitlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarilgan deb hisoblanadi.

3.7. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni taqdim etish Shartnoma muddatining amal qilish davrida amalga oshirilishi mumkin.

4. ISH SIFATI

4.1. Transport vositasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan materiallar, materiallar sifati, tovarlarni saqlash muddati yoki yaroqliligi ushbu toifadagi materiallar (tovarlar) uchun O'zbekiston Respublikasi bo'ylab amalda bo'lgan standartlarga mos keladi. (Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 13-avgustda ro'yxatga olingan 19.07.2010-y. TSV № EG-01 / 10-4014, MV № 60 va DBQ № 01-02 / 8-10)

4.2. Materiallar uchun kafolat muddati ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan kafolat muddati taqdim etilgan taqdirda amal qiladi.

4.4. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan o'rnatish uchun sotib olingan va taqdim etilgan yasama (asl nusxada bo'lmagan) ehtiyot qismlardan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.5. Agar xizmat ko'rsatish jarayonida bartaraf etilishi ko'zdan kechirish to'g'risidagi Nuqsonlar dalolatnomasida ko'zda tutilmagan nosozlik aniqlansa va / yoki uni bartaraf qilmaslik xizmat ko'rsatishni davom ettirishni qiyinlashtirsa yoki imkonsiz / behuda qilsa, shuningdek ularning sifati, narxi va muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, "Buyurtmachi"ga xabar berish orqali xizmat ko'rsatish to'xtatib turiladi. Bu holda xizmat ko'rsatish muddati "Buyurtmachi"dan ko'rsatmalar olish va qo'shimcha xizmat ko'rsatish davriga uzaytiriladi va ko'zdan kechirish to'g'risidagi qo'shimcha Nuqsonlar dalolatnomasi tuziladi.

4.6. Agar "Buyurtmachi" xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xizmatlarni bajarishdan bosh tortsa, u holda "Bajaruvchi" bir tomonlama ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni (ishlarni) ko'rsatishni davom ettirishdan bosh tortish va foydalanilmagan mablag'ning bir qismini qaytarish va amalda bajarilgan ishlar va ishlatilgan ehtiyot qismlar va materiallar uchun haq olish huquqiga ega.

4.7. Sifat talabga javob bermagan va taqdim etilgan xizmatlardan chetlashgan taqdirda "Buyurtmachi" darhol "Bajaruvchi"ni talabga javob bermaslik to'g'risida xabardor qiladi va takroriy xizmatlardan bepul foydalanish huquqiga ega. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunning 6 moddasi.

5. TOMONLARNING XUKUK VA MAJBURIYATLARI

5.1. Tomonidan majburlar rioya qilmoq ilova 3, 4.

5.1. "Bajaruvchi":

a) ushbu shartnomaning 1.2-bandga muvofiq, "Bajaruvchi"ning hisobvarag'iga shartnoma summasining 30% miqdorida oldindan to'lov kelib tushgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida majburiyatlarni bajaradi;

b) ish va xizmatlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi;

v) sifat bo'yicha texnik shartlarga javob beradigan (asl) yangi ehtiyot qismlardan foydalanadi;

g) omborda kerakli ehtiyot qismlar mavjud bo'lmaganda, bu haqda "Buyurtmachi"ni xabardor qilishi, ehtiyot qismlarni sotib olish uchun oldindan to'lovni amalga oshirishni taklif qiladi va xizmatlarni taqdim etish muddatini ehtiyot qismlarni sotib olish muddatiga uzaytiradi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish muddati ehtiyot qismni yetkazib berishni kutish vaqtiga uzaytiriladi va bu Tomonlar o'rtasida qo'shimcha ravishda kelishiladi. "Buyurtmachi" xizmat ko'rsatish uchun o'z materiallarini taqdim etishi mumkin. Bu holda, Buyurtmachining ishlatilgan ehtiyot qismlari ro'yxati Bajarilgan ishlar (xizmatlar) dalolatnomasida ko'rsatiladi;

d) agar xizmat ko'rsatish (materiallar) jarayonida texnik holatning sifatini yomonlashtirishga olib kelgan Shartnoma shartlaridan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, qaysi biri birinchi yuz berishiga qarab 3 (uch) oy yoki 15000 km. yo'l bosish ichida "Buyurtmachi" talabiga binoan barcha kamchiliklarni bepul tuzatib beradi;

ye) ishlab chiqaruvchi zavod me'yoriy-texnik, ekspluatatsiya - ta'mirlash va texnologik hujjatlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi;

j) alohida ishlarni bajarish uchun shartnoma bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qiladi. Shu bilan birga, "Bajaruvchi" bajarilgan ishlar sifati uchun "Buyurtmachi" oldida javobgardir;

i) "Buyurtmachi" tomonidan ushbu toifadagi transport vositasiga ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilangan transport vositasidan foydalanish qoidalari buzilgan taqdirda "Bajaruvchi" ta'mirlangan transport vositasidan, shu jumladan ularga nisbatan ta'mirlash ishlari olib borilgan agregatlardan kafolatni olib tashlaydi.

5.2. "Buyurtmachi":

a) "Bajaruvchi"ga xizmat haqini o'z vaqtida to'laydi;

b) avtomobilni xizmat ko'rsatish hududiga yetkazadi. Yetkazib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda yetkazib berish evakuator bilan "Bajaruvchi" hisobidan amalga oshiriladi;

g) "Bajaruvchi" ishiga aralashmasdan u tomonidan bajarilayotgan ishlar sifatini nazorat qilish huquqiga ega;

d) avtomobilni ta'mirlash uchun o'z ehtiyot qismlari, materiallari, agregatlari va boshqa jihozlarini taqdim etishi mumkin, agar ular "Bajaruvchi" omborida bo'lmasa.

6.1. Avtotransport vositasini qabul qilish - topshirish uni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish joyida (TXKSH) amalga oshiriladi.

6.2. Ishlar bajarilgandan (xizmatlar ko'rsatilgandan) keyin "Bajaruvchi" EHF va Bajarilgan ishlar dalolatnomasini taqdim etadi. "Buyurtmachi" uch kun ichida tasdiqlashi va transport vositasini olishi yoki rad etishi shart, tasdiqlash muddati o'tib ketgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 105-moddasiga muvofiq bitim yakunlangan hisoblanadi.

6.3. "Buyurtmachining" vakili transport vositasini qabul qilib olishda rasmiylashtirilgan shartnomani taqdim etishi lozim.

6.4. Qabul qilingan xizmatlar uchun Yuk xati-Hisob fakturalari (EHF) imzolangan va transport vositasini topshirgan paytdan boshlab "Buyurtmachi" transport vositasi uchun to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.5. Ta'mirlash uchun transport vositasini TXKSH yetkazib berish "Buyurtmachi" tomonidan amalga oshiriladi.

6.6. Ushbu shartnomaning 2.2. k.b. ko'rsatilgan davr ichida shartnomada ko'rsatilgan summa to'lanmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan xizmatlarni olishiga kafolat bermaydi.

6.7. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ushbu Shartnomani to'ldirish Tomonlarning kelishuviga binoan amalga oshirilishi mumkin, basharti avtotransport vositasini ta'mirlash jarayonida uning texnik tavsifini yaxshilaydigan qo'shimcha ishlar aniqlangan taqdirda. O'zgartirish kiritilganligini tasdiqlovchi holat bo'lib - Tomonlarning Qo'shimcha shartnomasi va 1 va 2-sonli ilovalar hisoblanadi.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar. 14-modda.

7.2. "Bajaruvchi" tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatlarning foydalanilmagan qismining 0,5% summasi miqdorida, lekin bajarilmagan ishlar miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

7.3. Kechiktirilgan to'lov uchun "Buyurtmachi" "Bajaruvchiga" kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov miqdorining 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

7.4. Boshqa hollarda Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq belgilanadi.

7.5. "Buyurtmachi" transport vositalarini ta'mirlash xizmatlarini o'z ehtiyojlari uchun oladi, ulardan (xizmatlardan) boylik orttirish uchun yoki shaxsiy, oilaviy, uy va shu tarzda qo'llash bilan bog'liq boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

7.6. Shartnoma bo'yicha xizmatlar tanlanmagan (xizmatlarni qabul qilish asossiz rad etilgan) taqdirda, Tomonlar Solishtirish dalolatnomasini imzolaydilar, uning asosida "Bajaruvchi" materiallarni xarid qilish uchun sarflangan xarajatlarni chegirib qolgan holda pul mablag'larini qaytarib beradi. Shu bilan birga "Buyurtmachi"dan tanlanmagan xizmatlar narxining 5% miqdorida jarima undiriladi.

7.7. "Buyurtmachi" shartnoma bajarilgan kundan boshlab 10-kun ichida transport vositasini olib ketmagan taqdirda, "Bajaruvchi" transport vositasini "Buyurtmachi" hisobidan avtoturargohga o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.8. Jarima sanksiyalarini to'lash qarzning asosiy summasini to'lashdan ozod qilinmaydi.

8. FORS MAJOR HOLATLARI

8.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarmaslik fors-major holatining ro'y berishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa (fors-major holatlari quyidagilardir: Shartnoma imzolangan davrda kuchga kirgan va uning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi qonun hujjatlari, me'yoriy va boshqa hujjatlar, toshqinlar, zilzilalar, tabiiy ofatlar va boshqalar).

8.2. Shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatini yo'q qilgan yuqoridagi holatlarga duch kelgan Tomon bu haqda vakolatli organning normativ aktini (hujjatini) dalil qilib ko'rsatib, fors major holatlar yuz bergan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay boshqa Tomonni xabardor qilishi shart.

8.3. Agar ushbu holatlar 3 (uch) oydan ko'proq davom etsa, har ikki tomon Shartnomani bekor qilishi mumkin. Bu holda, shartnoma bajarilmagan qismi bo'yicha bekor qilinadi va Tomonlar bajarilgan va bajarilmagan qismlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

9. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH

9.1. Nizo va kelishmovchiliklar, imkon qadar, Solishtirish dalolatnomalari imzolagandan keyin ikki tomonlama muzokaralar orqali hal qilinadi.

9.2. "Bajaruvchi" tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilgan yoki vijdonan bajarilmagan va EHFni olishda shartnoma majburiyatlaridan chekinilgan taqdirda, "Buyurtmachi" uch kalendar kun ichida, qo'shimcha kelishuv tuzilganda Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar elektron shaklda shikoyat (da'vo) yuboradi. (Shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng, 11.1-b. muvofiq barcha da'volar va kelishmovchiliklar o'z kuchini yo'qotadi).

9.3. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmasa, Tomonlar qonunda nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni sudga qadar hal qilish tartibotlari (da'volarni taqdim etish va o'zaro hisob-kitoblarni Solishtirish dalolatnomalarini va Yuk xati, Hisob-fakturalarini imzolash) amalga oshirilgandan keyin, ularni "Bajaruvchining" yuridik manzilida ko'rib chiqish uchun Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudiga taqdim etadilar.

10. SIR TUTISH

10.1. Tomonlar, Shartnomaning mazmuni, shuningdek Tomonlar bir-biriga topshirgan Shartnoma bilan bog'liq barcha hujjatlarni sir tutadilar va u Tomonlarning tijorat siri hisoblanadi, u boshqa Tomonning yozma roziligisiz oshkor qilinmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, yuridik shaxsning tijorat sirini tashkil etishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar bundan mustasno. O'R FK 7 bob, 98 modda, O'R 439-II-sonli Qonuni.

10.2. Sir tutish bo'yicha majburiyatlar ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagandan keyin ham yoki muddatidan oldin bekor qilinganda 3 (uch) yil davomida o'z kuchini saqlab qoladi. O'R FK 5 bobi.

10.3. Ma'lumotni sir tutish shartini buzganligi uchun, bunday shartni buzgan Tomon boshqa Tomonga yetkazilgan zarar uchun to'liq tovon to'lash ko'rinishida javobgar bo'ladi. Ushbu shartlar Tomonlardan biri qayta tashkil etilgan taqdirda - uning huquqiy vorislari uchun, Tomonlardan biri tugatilgan taqdirda - boshqa Tomon uchun ham amal qiladi. Har bir Tomonning boshqa Tomonga tegishli sir tutiladigan ma'lumotlarini himoya qilish usullari - ushbu Tomonning o'z sir tutiladigan ma'lumotlarini himoya qilish usullaridan kam bo'lmasligi lozim. Hech bir Tomon boshqa Tomonning yozma roziligisiz boshqa Tomonning sir tutiladigan ma'lumotlarini har qanday uchinchi tomonga berishga yoki boshqa Tomonning sir tutiladigan ma'lumotlari bilan biron-bir uchinchi tomonni tanishtirishga haqli emas.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

11.1 Ushbu Shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. (O'R FK 108 va 308-moddalari).

11.2. Ushbu shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma shaklda amalga oshiriladi, qo'shimcha shartnoma bilan rasmiylashtiriladi va har ikki Tomon imzolashi lozim.

11.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada, Tomonlarning ixtiyoriga ko'ra o'zbek tilida tuzilgan. Shartnomani yozma yoki elektron ko'rinishda tuzish shakli bir xil yuridik kuchga ega, Yuk xati, Hisob Faktura va EHS teng yuridik kuchga ega.

11.4. Ushbu Shartnoma imzolagandan keyin u bo'yicha barcha dastlabki muzokaralar, yozishmalar va u yoki bu tarzda Shartnomaga daxldor kelishuvlar o'z kuchini yo'qotadi.

11.5. Tomonlar ushbu bilan korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablariga rioya etish va ushbu shartnomada ko'zda tutilgan huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog'liq korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari normalarini buzadigan har qanday harakatlarni sodir etmaslik, shu jumladan (cheklanmagan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsga hamda tijorat tashkilotlari, hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish idoralariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalar va ularning vakillariga (ular bilan cheklanmagan holda) noqonuniy to'lovlarni taklif qilmaslik, unga rozilik bermaslik, va'da bermaslik yoki amalga oshirmaslik (bu bilan cheklanmagan holda), shu jumladan naqd yoki boshqa har qanday shaklda pora bermaslik majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. "Buyurtmachi" tomonidan 7.5-bandning 7-xatboshida ko'rsatilgan majburiyatlar buzilgan taqdirda, "Bajaruvchi" bir tomonlama sud tartibotisiz ushbu Shartnomani bajarishni rad etishga haqlidir. Shartnoma ushbu bandga muvofiq bekor qilingan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachiga" yetkazilgan zararni qoplab bermaydi.

11.6. "Bajaruvchi" oldindan to'lov qilib, ushbu Shartnoma shartlariga to'liq rozi ekanligini va u bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi va 11.1. k.b. ko'rsatilgan muddatlar tugaganidan keyin qo'shimcha to'lovni amalga oshirishni va bitimni yakunlash uchun barcha kerakli hujjatlarni taqdim etishni o'z zimmasiga oladi, zarur hujjatlar (Shartnomalar, Bajarilgan ishlar dalolatnomalari, Hisob-fakturalar, Solishtirish dalolatnomalari, EHF) EHF olingan paytdan boshlab uch kunlik muddat ichida taqdim etilmagan yoki zarur hujjatlarni imzolashdan bosh tortgan taqdirda shartnoma shartlarini bajarmaslikning barcha oqibatlarini Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yuborish huquqisiz o'z zimmasiga oladi.

11.7. "Buyurtmachi" tomonidan transport vositalaridan foydalanish qoidabuzarligi va moliyaviy qoidabuzarlik (to'lov, hisob-kitob, xizmatlardan noto'g'ri foydalanish va noto'g'ri taqdim etilgan ma'lumotlar) sodir etilgan taqdirda, barcha javobgarlik "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida"gi 670-1-son O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq "Buyurtmachining zimmasida bo'ladi.

Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari:

"Bajaruvchi"

ООО "МЕХАНИК АВТО PARTS"

АВАЙХОН КО'ЧАСИ, 98А-УЙ

Идентификационный номер
покупателя (ИНН) 305612294

Регистрационный код
плательщика НДС: 326020032597

(сертификат активный)

Расчётный счёт: 20208000200893131001

МФО банка: 01018

Директор: Ачкасов А.С.

М.О.:

Имзо

"Buyurtmachi"

10001086026266706810011000

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI UY-JOY
KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH VAZIRLIGI

100035, O'zb. Resp. Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Niyozbek yo'li ko'chasi, 1-uy. Tei: 234-06-88, Faks: 237-07-44

Sh/hr Yood 10860262667068 10011000

STIR 304931516 OKED 84111

MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI

G/hr 23402000300100001010

Toshkent shahar MB HKKM

MFO 00014 STIR 201122919

М.О.:

Имзо



Handwritten signatures in blue ink, including one that appears to be 'A. Achkasov'.

2022 йил " 17 " 01 даги 11 -сон шартномага 1-илова

«ООО Mexanik Avto Parts»

Тошкент ш. AVAYXON кўчаси. 98А-UY

Р/с 20208000200893131001

Банк номи: Капиталбанк Мирзо-улуг. Р-н

МФО: 01018

СТИР: ИФУТ: 305612294

Тел./факс +99890-357-02-20

Нуксонлар Далолатномаси

№ п.п.	Товарлар ва хизматлар номи	давлат рақами	ўл.бир.	сони	эскириш сабаби	ишлаб чиқарган давлат
1	Фильтр АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
2	Электронный блок управления АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
3	Ограничитель пластмассовый АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	2	Износ	GM Корея
4	Сальник стакана АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
5	Считывающий датчик АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
6	Малая шестерня АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
7	Сальник гранаты АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
8	Гидроблок АКПП	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	1	Износ	GM Корея
9	Масло ATF DXVI 1л	Джентра гос. № 01 228 DAV	шт.	8	Износ	GM Корея

Сарфланадиган материаллар калькуляцияси

№ п.п.	Эҳтиёт қисмлар номи	ўл.бир.	Давлат рақами	Сони	Нархи с НДС (15%)	Суммаси с НДС (15%)	Код ИКПУ
1	Фильтр АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	396750	396750	GM Корея
2	Электронный блок управления АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	6187250	6187250	GM Корея
3	Ограничитель пластмассовый АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	2	356500	713000	GM Корея
4	Сальник стакана АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	316250	316250	GM Корея
5	Считывающий датчик АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	477250	477250	GM Корея
6	Малая шестерня АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	316250	316250	GM Корея
7	Сальник гранаты АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	316250	316250	GM Корея
8	Гидроблок АКПП	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	1	1426000	1426000	GM Корея
9	Масло ATF DXVI 1л	шт.	Джентра гос. № 01 228 DAV	8	97750	782000	GM Корея
10	Итого сумма расходных материалов с учетом 15 % НДС :					10931000	

Итого сумма расходных материалов с учетом 15 % НДС :Десять миллионов девятьсот тридцать одна тысяча сум 00 тийин с учетом 15 % НДС

№ п.п.	Техник хизмат кўрсатиш бўйича хизматлар		Ўл.бир.	сони	Суммаси с НДС (15%)
1	Фильтр АКПП	замена/установка	услуга	1	250000,00
2	Электронный блок управления АКПП	замена/установка	услуга	1	350000,00
3	Ограничитель пластмассовый АКПП	замена/установка	услуга	2	150000,00
4	Сальник стакана АКПП	замена/установка	услуга	1	100000,00
5	Считывающий датчик АКПП	замена/установка	услуга	1	200000,00
6	Малая шестерня АКПП	замена/установка	услуга	1	175000,00
7	Сальник гранаты АКПП	замена/установка	услуга	1	100000,00
8	Гидроблок АКПП	замена/установка	услуга	1	250000,00
9	Масло ATF DXVI 1л	замена/установка	услуга	8	115500,00
10	Услуга эвакуатора		услуга	1	276000,00
	Итого сумма услуг с 15 % НДС:				1966500,00

Итого сумма услуги : Один миллион девятьсот шестьдесят шесть тысяч пятьсот сум 00 тийин с учетом 15 % НДС

Итого к оплате (автозапчасти,услуги) : 12,897,500 (Двенадцать миллионов восемьсот девяносто семь тысяч пятьсот сум 00 тийин с учетом 15 % НДС)

"Бажарувчи"



"Буюртмачи"



Ра. етчи :  = А. Ахроров



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MEKXANIK AVTO PARTS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MEKXANIK AVTO PARTS" MCHJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

20.06.2018

617228

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana oy (soz bekat) yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305612294

Tashkiliy-huquqiy
shakli

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, AVAYXON KO'CHASI, 98A-UY,

Guvohnoma

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing o'ziga nomi)





ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ БОҶАРАТГА ЎТКАЗИШ ТУҶИРИДА GUYOHNOMA

Кўрсаткич № 003810-05
2011 йил 01-майда
Қабул қилинган

"ASIA AUTO CENTRE"

№ 008419

Ташкил қилувчи ташкилот

Маъмурий манзил

Мулқдор

Давлат раъисхонаси

Ўзбекистон Республикаси

QOMASAROV KOCHMASI, 315-A-UY

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366

Автомобилнинг қўшничи рақами

Автомобилнинг қўшничи рақами

Ўзбекистон Республикаси

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366

Ўзбекистон Республикаси

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366

Ўзбекистон Республикаси

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI

ТОШКЕНТ ШАҲАР "Азия Авто" ТУВАЛ ХОМЕРИИНИ

АЙТТИРИШ

УС № 008079

"ASIA AUTO CENTRE"

Ўзбекистон Республикаси

QOMASAROV KOCHMASI, 315-A-UY

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366

Автомобилнинг қўшничи рақами

Автомобилнинг қўшничи рақами

Ўзбекистон Республикаси

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366

Ўзбекистон Республикаси

№188 (COATO)
1726280
№111 (GORTO)
23044845
№111 (GORTO)
307398366



